



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIYOT VA BUXGALTERIYA HISOBINING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

RESPUBLIKA KONFERENSIYASI

2025-YIL 28-NOYABR

MATERIALLAR TO'PLAMI



PAXTACHILIKDA EKOLOGIK MUAMMOLAR PAYDO BO'LISHI MANBALARI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI

Ishniyazov Zoxid Normamatovich

SamDVMChBU Iqtisodiyot va menejment kafedrası assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18033324>

Annotatsiya. Maqolada respublikamiz paxtachilik tarmog'ini rivojlantirish borasidagi ekologik muammolar, tarmoqda resurslardan foydalanish jarayonida kelib chiqadigan atrof muhit ifloslanishi aholi turmush darjasiga ta'siri o'rganilgan. Maqola yakunida esa xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются экологические проблемы, связанные с развитием хлопковой отрасли нашей республики, влияние загрязнения окружающей среды на уровень жизни населения, которое происходит при использовании ресурсов в отрасли. В конце статьи даны выводы и предложения.

Abstract. The article examines environmental issues related to the development of the cotton industry in our republic, the impact of environmental pollution on the standard of living of the population, which occurs when using resources in the industry. At the end of the article, conclusions and proposals are given.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, agroklastar, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, ekologik muammo.

Paxtachilik tarmog'ini rivojlantirish eng avvalo sohada foydalanishga jalb qilingan yer va suv resurslaridan samarali foydalanish bilan bog'liq. Tahlillar ko'rsatishicha, uzoq yillar davomida paxtachilik tarmog'ida almashlab ekish tizimining izdan chiqishi, boshqa ekinlar uchun mo'ljallangan maydonlarda ham paxta ekishga intilish davom etishi, ekin maydonlari tuprog'idan paxta hosili bilan har yili olib chiqib ketishi, tuproqda oziq moddalar kamayishiga sabab bo'lmoqda.


Tuproq unumdorligini saqlash imkonini beruvchi mineral o'g'itlardan foydalanishda nisbatlar buzilishi, ulardan foydalanishda tuproqning kimyoviy tarkibini tahlil qilishga e'tibor bermaslik, noto'g'ri ishlov berish oqibatida tuproq unumdorligi pasayishi bilan birga, agrokimyoviy va mexanik tarkibida ham salbiy holatlar kuchaymoqda. Bu esa ekologik muammolar keltirib chiqarmoqda (rasmga qarang).

Tuproq unumdorligi pasayishi nafaqat iqtisodiy jihatdan ya'ni, paxta yetishtirish iqtisodiy ko'rsatkichlari pasayishida balki, tuproq ekologiyasi buzilishida ham o'z aksini topmoqda. Shu boisdan tuproq unumdorligi kamayishini ham ekologik muammo hisoblanadi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, so'nggi o'n yillikda respublika bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi maydonlarining tuproq unumdorligi va sifat ko'rsatkichlari pasayishi kuzatilmoqda. Respublika bo'yicha bu ko'rsatkich 1990-2023 yillar mobaynida 3 ballga pasagan bo'lsa, ba'zi tumanlar bo'yicha tuproq unumdorligi pasayishi ancha sezilarli o'zgargan.

Jumladan, 1990 yilga nisbatan 2023 yilda Samarqand, Farg'ona viloyatlariida qishloq xo'jaligi suvli maydonlari tuproq unumdorligi 8 ballga, Surxondaryo viloyatida 6 ballga, Navoiy viloyatida 6 ballga, Namangan va Toshkent viloyatlarida ham 5 ballga pasaygan. Bu esa tegishli

agrotehnik tadbirlar bilan birgalikda, tashkiliy masalalarni ham hal qilishni taqozo qiladi.



Пaxtachиликда экин мадонлари tupроқ экологик ҳолатининг

бузилшга та'сир етувчи асосий омиллар¹²

Tuproq ekologik holati buzilishida paxtachilik sohasida texnika vositalari va agrotekhnologiyadan noto'g'ri foydalanish masalasi asosiy salmoqqa ega. Keyingi yillarda yerga ishlov berishda zanjirli traktorlar o'rniga, asosan yuza hajmi kichik bo'lgan rezina g'ildirakli traktorlardan foydalanish natijasida yerga ishlov berish sifati pasayishi, tuproq haydov qatlamining zichlanishi kabi holatlarga olib kelmoqda.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, g'ildirakli traktorlar yerga ishlov berishda tuproqni zichlab quyidagi salbiy iqtisodiy-ekologik holatga olib keladi:

- zichlashish natijasida tuproqning suv o'tkazuvchanligi pasayib, yuqori qatlami kuchli namlanishi oqibatida suv eroziyasi havfi keskin ortadi, bu esa hosildorlik pasayishiga sabab bo'ladi;

- zichlashgan tuproqlarni ustki qatlamida namlik ketgandan keyin qatqaloq paydo bo'lishi, o'simlik rivojini sekinlashtiradi;

- tuproqda havo almashinuvi yomonlashishi, o'simlik ildizi va mikroorganizmlar uchun kislorod va gaz almashinuvchi yomonlashishi, oziq moddalar almashinuvi va o'simlik rivojini sekinlashtiradi;

- urug'likning tuproqda joylashuvi yomonlashishi, uning unibchiqish salmog'ini pasaytiradi, masalan tajribalarda arpada 27-30%, bug'doyda 23-40% unuvchanlikni pasaytirgan;

- mineral o'g'itlarning o'simlik tomonidan o'zlashtirilishi salmog'ini 24-30 foizga kamaytirishga olib keladi;

- yerga ishlov berishda dizel yoqilg'isi sarfining gektariga 2,5-3,5 litrga ortishiga, g'alla ekinlari hosildorligining gektaridan 0,82-1,24 tonnagacha yo'qotilishiga sabab bo'ladi;

¹² Манба. Муаллифлар томонидан ишлаб чиқилган

- g'ildirakli og'ir traktorning (K-700) bir marta o'tishi, 45 sm chuqurlikda, ko'p marta o'tishi esa 50-60 sm chuqurlikda tuproqni zichlaydi;

- mavsum davomida yerga ishlov berishda traktor va agregatlar 5-15 martagacha dalaga kirishi, dala yuzining 80 foizigacha qismini qoplab oladi bu esa tuproqning kuchli zichlashishiga sabab bo'ladi;

- tadqiqotlarda zanjirli DT-75 traktorining tuproqni 21,6%, g'ildirakli K-700 traktori esa 39,0 foiz deformatsiyalashi tasdiqlangan;

- g'ildirakli traktorlardan foydalanish natijasida mavsum davomida hosildorlik gektaridan 6-22 foizgacha yo'qotilishi hisob-kitob qilingan.

Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishda tuproq ekologik holatini saqlash tizimini takomillashtirish va tuproq unumdorligini oshirishda quyidagi tadbirlarni o'tkazish maqsadga muvofiq.

Tuproq unumdorligini saqlashda sug'orish eroziyasiga qarshi kurash alohida o'rin tutadi. Shu boisdan quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- sug'orish texnologiyasini takomillashtirish va tuproq yuza qismi qiyaligiga qarab sug'orish me'yorlarini belgilash;

- sug'orish eroziyasiga qarshi turli agrotexnik usullarni qo'llash. Ya'ni, oraliq ekinlar ekish, eroziyaga uchragan hududlarda ekinlar qator oralariga bentonit solish va tuproqning yuvilganlik darajasiga qarab organik va mineral o'g'itlarni tabaqalab qo'llash va boshqalar.

- shamol eroziyasiga qarshi tuproqni himoyalashda ixota daraxtzorlari barpo qilish, yirik magistral kanal, daryo va suv omborlari, jarliklar qirg'og'i hududlarida daraxtzor polosasini barpo qilish talab etiladi.

Tuproq ekologiyasini yaxshilashda har bir paxtachilik hududining tabiiy-iqlim sharoitlariga mos keluvchi agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, ilmiy asoslangan maqbul muddat va sifatda yerni shudgorlash paxtachilikda muhim agrotexnik tadbir hisoblanadi. Respublikamizda yerni shudgorlashning eng qulay muddati oktabr-noyabr oylari bo'lib, turli viloyatlar va tumanlar doirasida ham ba'zi o'zgarishlar bo'lishi lozim.

Ammo, amaliyotda dekabr va undan keyin ham shudgorlash ishlarining 30-40 foizi amalga oshiriladi. Bunda tuproqdagi tegishli kimyoviy va biologik jarayonlar tuproq harorati keskin pasayishi va muzlashi hisobiga to'xtaydi yoki suslashadi. Shuningdek, shudgorlash muddati va sifati buzilishi bahorda yerni ekishga tayyorlash ishlari sifatsiz bo'lishiga, ortiqcha yerga ishlov berishga to'g'ri kelishi hisobidan sarf harajatlar ko'payishi va tuproq zichlashib ketishiga olib keladi.

Tuproq ekologiyasini yaxshilashda tuproqqa mahalliy o'g'it solish hisobidan unumdorligini oshirish, mineral o'g'itlar narxi yuqoriligi va yanada oshib borayotgan paytda ahamiyatli hisoblanadi. Olimlar bir gektarga 20-25 tonna mahalliy o'g'it chiqarishni tavsiya qilishadi.

Paxtachilik hududlarida ekologik vaziyatni yaxshilash, paxta yetishtirish agrotexnologiyalarini takomillashtirishda fermer xo'jaliklarida ekin maydonlari tuproq unumdorligini ekologik usullar bilan oshirib borishda almashlab ekish tizimini joriy qilish lozim.

Yuqoridagi ilmiy-amaliy xulosalar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

● paxtachilikni rivojlantirish va paxtachilik hududlarida tuproq ekologiyasi muvozanatini saqlash maqsadida ekin maydonlari tarkibini takomillashtirishda respublikaning tabiiy iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ekin turlari salmog'ini turlicha nisbatlarda saqlash lozim;

● paxta yetishtirishda foydalaniladigan mineral o'g'itlar va gerbitsid, pestsidlar va

defoliantlarning kam zararli turlarini ishlab chiqish borasidagi ilmiy-tadqiqotlarni rag'batlantirish lozim;

- g'ozaning kasallik va zararkunandalariga qarshi kurashda biologik usullardan keng foydalangan holda, kimyoviy usullardan foydalanish chegaralarini aniq belgilab qo'yish lozim;

- g'ozaning hosili pishib yetilish davrida bargini o'zi to'kib yuboruvchi g'oz navlarini yaratish hisobiga defoliantlardan foydalanish ko'lamini kamaytirish kabi tadbirlarni amalga oshirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Beknazarov O'.F., Myrzaev B.J. Paxtachilik taraqqiyoti va ekologik maslahat tizimini rivojlantirish uzviyligi. /- Toshkent, O'zBIITI, 2007, -57-58-b.
2. Xushmatov N., Respublikada paxta xom ashyosi ishlab chiqarish borasidagi muammolar: O'z BIITI Ilmiy ishlanmalar to'plami. – Toshkent, 2002. -31 b.

Mundarija / Contents

1 Baxriyev Muxiddin Sheraliyevich, YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORKONALARIDA KAPITAL QO'YILMALAR: IQTISODIY AHAMIYATI VA SAMARADORLIK TAHLILI	5
2 Бердимурат Назимгуль, Альчимбаева Камила Есболовна, ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРЕИМУЩЕСТВА ОРГАНИЧЕСКОГО ЗЕМЛЕДЕЛИЯ	11
3 Ergashboyev Minghojiddin Jasurbek o'g'li, Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich, FROM FARMS TO DESTINATIONS: AGRITOURISM AS A PATHWAY TO SUSTAINABLE RURAL DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN	25
4 Fayzullayev Murodbek Nematullayevich, Saypiddinov Behruz Zayniddin o'g'li, Zaripov Shoxruxbek Mansurbek o'g'li, AGROKLASTERLARDA G'ALLA MAHSULOTI TANNARXINI AN'ANAVIY TAHLILI VA UNI PASAYTIRISH YO'LLARI	30
5 Fayzullayev Murodbek Nematullayevich, Aliqulova Zebuniso O'tkirovna, Boytemirov Bilolbek Quvonchbek o'g'li, QISHLOQ XO'JALIGI KORKONALARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI	34
6 Fayzullayev Murodbek Nematullayevich, Zaripov Shoxruxbek Mansurbek o'g'li, Abdug'aniyev O'tkirjon Alisher o'g'li, QISHLOQ XO'JALIGI KORKONALARIDA ASOSIY VOSITALARNI MODERNIZATSIYALASH VA TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	40
7 Ibodov Kamoliddin Mamatqulovich, XORAZM VILOYATIDA ORGANIK MAHSULOTLARI BRENDI TANIQLILIGINI OSHIRISH TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	45
8 Ishniyazov Zoxid Normamatovich, PAXTACHILIKDA EKOLOGIK MUAMMOLAR PAYDO BO'LISHI MANBALARI VA IJTIMOY-IQTISODIY OQIBATLARI	51
9 Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich, Hamidov Nizomjon Farhod o'g'li, ASALARICHILIK MAHSULOTLARINING HISOBI: HOZIRGI HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	55
10 Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich, ASALARICHILIKDA XO'JALIKLARIDA XARAJATLARNI HISOBGA OLISH: MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH YO'LLARI	62
11 Islamov Shukhrat Marufjonovich, Nodira Abdullayevna Eshquvvatova, YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	70
12 Jo'raev Sirojiddin Turdiqulovich, Jumanova Mahliyo Boboqulovna, XASHAKI DUKKAK (VICIA FABIA L.) TIZMALARINING VEGITATSIYA DAVRI DAVOMIYLIGI	77
13 Жўраев Дилшод Худойқулович, ВИНОЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР ҲИСОБИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	80
14 Karshiyev Zoxidxon Avazxonovich, Parmanova Dilnoza Mavlanovna, TAJRIBADAGI TURLI ZOTGA MANSUB ULOQLARNING TANA TUZILISH INDEKSLARI	83
15 Kazakova Zulayha Salaxiddinovna, To'rayev Fazliddin Oybek o'g'li, Do'styorov Mirabbos Erkin o'g'li, YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTINING DOLZARB MUAMMOLARI VA UNING YECHIMLARI	87
16 Norov Ixom Chori o'g'li, Amanova Maxfurat Eshmurodovna, KUNJUT (SESAMUM INDICUM L) KOLLEKSIYA KO'CHATZORIDA NAV VA NAMUNALARNI RIVOJLANISH FAZALARINI BAHOLASH	94
17 Nurbekov Aziz Isroilovich, Begimqulova Dilnoza Meyliyevna, TURLI EKISH USULLARI VA OZUQA SHAROITLARIDA ILDIZDAN TASHQARI OZIQLANTIRISHNI KUZGI BUG'DOYNING BO'YIGA TA'SIRI	98
18 Ochilova Mohigul Toshtemir qizi, Abduzoirov Sarvarbek Sanjar o'g'li, Mahammadahliyev Muhammadkarim Mahammadyunus o'g'li, Xudoyberdiyev Odilbek Olimjonovich, O'ZBEKISTON SHAROITIDA YASHIL ENERGETIKADAN FOYDALANGAN HOLDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH	103
19 Raximova Umida Rabbimovna, Daniyrov Xurshid Baxtiyorovich, Raxmonberdiyev Sherzod Alisher o'g'li, QISHLOQ XO'JALIGI KORKONALARIDA MATERIALLAR HISOBINI YURITISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	107
20 Salamov Ibroxim, Tursunov To'liqin Jo'raqulovich, UZUM YETISHTIRISHDA IQTISODIY SAMARADORLIK VA KO'RSATKICHLAR TRANSFORMATSIYASI	111
21 Tuxtayev Zafar Mamatkulovich, Qirjigitov Azizjon Zohidjonovich, AGROSANOAT KORKONALARIDA TOVAR MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI TAHLIL QILISH	116
22 Mirsayd Xudaybergenov, DUKKAKLI DON EGINLARINING TURLARI, GURUHLANISHI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI	119
23 Xudoyberdiyeva Marifat Umarovna, Abduzoirov Sarvarbek Sanjar o'g'li, Mardonov Abbas Abduvali o'g'li, Sumnatov Aslbek Tolib o'g'li, IQLIM O'ZGARISHINING QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARIGA TA'SIRI VA YASHIL IQTISODIY YONDASHUV ORQALI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	124
24 Yorbekova Dilorom Muhammadkulovna, Fayzullayev Umidillo Xayrulla o'g'li, Rasulova Sevinch Shodiyor qizi, YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGINING AHVOLI VA ASOSIY MUAMMOLARI	128
25 Yuldashev Sherali, QISHLOQ XO'JALIGIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLAR SHAROITIDA G'ALLACHILIK TARMOG'INING ISTIQBOLLARI	131
26 Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li, OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR HISOBI VA ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH	137
27 Аметова Насиба Даниловна, ИШ ҲАҚИ ҲИСОБИНИНГ НАЗАРИЙ ВА НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ	143
28 Айтимбетов Амирбек Қошибекович, ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ҲИСОБИНИНГ ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	149
29 Berdiyeva Marjona Shavkat qizi, BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASHDA BUXGALTERIYA BALANSINING TAHLIL IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH	154
30 Bobomurodov G'ayrat Ro'zi o'g'li, Tuxtayev Zafar Mamatkulovich, Abdullayev Mehrbek Zokir o'g'li, KASBGA O'RGATUVCHI MAKTABLARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	159
31 Эргашева Васи́ла Абдумажитовна, БАҲОЛАНГАН МАЖБУРИЯТЛАР ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ	163
32 Эргашева Васи́ла Абдумажитовна, МАЖБУРИЯТЛАР ҲИСОБИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	167
33 Эшонқулов Акмал, ПУЛ МАБЛАҒЛАРИ ТАЪРИФИ ВА ТАСНИФИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА	171